

**Boltayev Bobir Baxtiyorovich**

Buxoro davlat universiteti  
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## ROBERT ALMEYEVNING O'ZBEKISTON MUZEYSHUNOSLIGI RIVOJIGA QO'SHGAN ILMY HISSASI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarixchi va muzeyshunos olim Robert Valiyevich Almeyevning O'zbekiston muzeylari tarixi, muzey ishi nazariyasi hamda mustaqillik yillarida muzey muassasalarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini o'rganishdagi ilmiy hissasi tahlil qilinadi. Maqolada R. Almeyev tomonidan muzeylarning faqat eksponat saqlovchi muassasa emas, balki tarixiy xotira, milliy o'zlik, ma'naviy tarbiya, madaniy kommunikatsiya va hududiy taraqqiyot omili sifatida talqin etilgani yoritiladi. Shuningdek, olimning Buxoro muzey-qo'riqxonasi faoliyati misolida muzeylar ishini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, bozor iqtisodiyoti, madaniy merosni asrash va muzey kommunikatsiyasi bilan bog'liq holda o'rganishga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Maqolada R. Almeyev ilmiy merosining bugungi O'zbekiston muzeyshunosligi, madaniy merosni boshqarish va muzey pedagogikasi uchun ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Muzeyshunoslik, O'zbekiston muzeylari, Buxoro muzey-qo'riqxonasi, madaniy meros, tarixiy xotira, muzey kommunikatsiyasi, milliy o'zlik, muzey ishi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot.

## НАУЧНЫЙ ВКЛАД РОБЕРТА АЛЬМЕЕВА В РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОГО ДЕЛА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В данной статье анализируется научный вклад историка и музееведа Роберта Валиевича Альмеева в изучение истории музеев Узбекистана, теории музейного дела и социально-культурного развития музейных учреждений в годы независимости. Особое внимание уделяется трактовке музея не только как учреждения хранения экспонатов, но и как института исторической памяти, национального самосознания, духовного воспитания, культурной коммуникации и регионального развития. Раскрывается значение исследований Р. Альмеева для современной музеологии, охраны культурного наследия и музейной педагогики Узбекистана.

**Ключевые слова:** Музееведение, музеи Узбекистана, Бухарский музей-заповедник, культурное наследие, историческая память, музейная коммуникация, национальное самосознание.

## ROBERT ALMEYEV'S SCIENTIFIC CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF MUSEUM AFFAIRS IN UZBEKISTAN

**Abstract:** This article analyzes the scholarly contribution of historian and museologist Robert V. Almeev to the study of the history of museums in Uzbekistan, museum theory, and the socio-cultural development of museum institutions during the years of independence. Particular attention is paid to his interpretation of museums not merely as repositories of exhibits, but as institutions of historical memory, national identity, spiritual education, cultural communication,

10 *and regional development. The article highlights the significance of Almeev's research for contemporary museology, cultural heritage management, and museum education in Uzbekistan.*

**Keywords:** *Museology, museums of Uzbekistan, Bukhara Museum-Reserve, cultural heritage, historical memory, museum communication, national identity.*

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixshunosligi, madaniyatshunosligi va muzeyshunosligi oldida yangi ilmiy vazifalar paydo bo'ldi. Avvalo, tarixiy merosni milliy manfaatlar, tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish mezonlari asosida qayta anglash zarurati yuzaga keldi. Bu jarayonda muzeylar alohida o'rin tutdi. Chunki muzeylar xalqning moddiy va ma'naviy merosini saqlovchi, tarixiy xotirani shakllantiruvchi, avlodlar o'rtasida madaniy uzviylikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki o'n yilligida muzeylar faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularni milliy istiqbol g'oyasi, tarixiy haqiqat va madaniy merosni targ'ib etish markazlariga aylantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi[6].

Ana shunday ilmiy va amaliy ehtiyojlar sharoitida Robert Valiyevich Almeyevning O'zbekiston muzeylari tarixi va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish istiqbollari bag'ishlangan tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Olimning ilmiy izlanishlari O'zbekiston muzeylarini faqat tarixiy eksponatlar jamlangan muassasa sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash, madaniy kommunikatsiya, ma'naviy tarbiya va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tizim sifatida tahlil qilishga qaratilgan.

R. Almeyevning o'zining ilmiy tadqiqotlarida mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatidagi o'zgarishlar, davlat siyosatining muzey sohasiga ta'siri, muzey tarmog'ining kengayishi, yangi turdagi muzeylarning shakllanishi, Buxoro muzey-qo'riqxonasi tajribasi hamda muzeylarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashuv masalalari keng yoritilgan. Mazkur maqolaning maqsadi - R. Almeyevning O'zbekiston muzeyshunosligi rivojiga qo'shgan ilmiy hissasini ilmiy hujjatlar asosida tahlil qilish, uning ilmiy qarashlarining bugungi muzey amaliyoti uchun ahamiyatini ochib berishdan iborat[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli va muammoviy yondashuvlardan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy yondashuv R. Almeyev tadqiqotlarida mustaqillik yillaridagi muzeylar faoliyati qanday davriy va mazmuniy o'zgarishlar bilan tavsiflanganini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy yondashuv orqali sovet davridagi muzeylar faoliyati bilan mustaqillik davridagi muzey siyosati o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqildi. Tizimli yondashuv muzeyni faqat madaniy muassasa sifatida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ta'limiy va kommunikativ vazifalarni bajaruvchi murakkab institut sifatida baholashga xizmat qildi[1].

Maqolaning manbaviy asosini R. Almeyevning faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari hamda ilmiy tadqiqotlari tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlarda olimning maqsadi, ilmiy sohada amalga oshirgan yangiligi, tadqiqotlarining amaliy ahamiyati, nashr qilingan ishlari va asosiy ilmiy xulosalari bayon etilgan. Shu jihatdan ham muzey sohasini chuqur ilmiy o'rganishda R. Almeyev tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalar va qator asarlar muhim manba hisoblanadi[2].

R. Almeyev ilmiy qarashlarining muhim jihati shundaki, u muzeylarni faqat moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlovchi joy sifatida emas, balki jamiyat bilan bevosita aloqada bo'lgan ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi. Olim uchun muzey - bu o'tmishni hozirgi zamon bilan bog'laydigan, tarixiy xotirani shakllantiradigan, xalqning madaniy o'zligini mustahkamlaydigan va kelajak haqidagi tasavvurlarni boyitadigan muassasadir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarixga, milliy merosga, qadimiy shaharlar, me'moriy yodgorliklar, arxeologik topilmalar, etnografik ashyolar va yozma manbalarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu jarayon muzeylar faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. R. Almeyev ana shu o'zgarishlarni chuqur tahlil qilib, muzeylar milliy tiklanish jarayonining ajralmas qismiga aylanganini ko'rsatadi. Uning fikricha, muzeylar xalqning tarixiy xotirasini uyg'otish, yosh avlodda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, madaniy merosni ommalashtirish orqali jamiyatning ma'naviy hayotida faol ishtirok etadi[3].

Bu yondashuv R. Almeyev tadqiqotlarining nazariy ahamiyatini oshiradi. Chunki u muzeyni tor idoraviy yoki ekspozitsion muassasa sifatida emas, balki jamiyatning madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi faol subyekt sifatida o'rganadi. Bunday yondashuv O'zbekiston muzeyshunosligida muzey faoliyatining ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglashga imkon yaratdi.

R. Almeyev tadqiqotida 1991–2000 yillar alohida tarixiy davr sifatida ko'rib chiqiladi. Bu davr O'zbekiston muzeylari uchun yangi bosqich bo'ldi. Mustaqillik tufayli muzeylarning mazmuni, ekspozitsiya siyosati, ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va tarbiyaviy vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Avvalgi mafkuraviy cheklovlar o'rniga milliy tarix, madaniy meros, buyuk allomalar, davlat arboblari, me'moriy obidalar va xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasini yoritishga keng imkoniyatlar ochildi[5].

Olimning ilmiy izlanishlarida davlat tomonidan muzeylar faoliyatiga qaratilgan e'tibor muhim omil sifatida baholanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida muzeylar faoliyatini yaxshilash, yangi muzeylar tashkil etish, tarixiy-madaniy boyliklarni muhofaza qilish, ularni ilmiy o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha qator tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. R. Almeyev bu jarayonni tasodifiy hodisa sifatida emas, balki milliy davlatchilik, tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish siyosatining tarkibiy qismi sifatida tahlil qiladi[9].

Ayniqsa, olim muzeylarning milliy istiqloq g'oyasini mustahkamlashdagi o'rniga e'tibor qaratadi. Uning talqinida muzeylar o'tmishdagi tarixiy voqealarni namoyish etish bilangina cheklanmaydi, balki mustaqillik davri kishisining tarixiy tafakkurini, fuqarolik pozitsiyasini va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan R. Almeyev tadqiqoti mustaqillik davri muzey siyosatini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilgan ilmiy ishlardan biri sifatida baholanishi mumkin[6].

R. Almeyev ilmiy faoliyatida Buxoro muzey-qo'riqxonasi alohida o'rin tutadi. U ushbu muassasa faoliyatini O'zbekiston muzeylari rivojlanishining muhim modeli sifatida o'rganadi. Buxoro qadimiy shahar sifatida boy tarixiy, me'moriy va madaniy merosga ega. Shu sababli Buxoro muzey-qo'riqxonasi oddiy muzey emas, balki shahar makoni, tarixiy obidalar, me'moriy ansambllar, arxeologik va etnografik meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab madaniy tizim hisoblanadi[8].

Olim Buxoro muzey-qo'riqxonasi misolida muzeylarning hududiy taraqqiyotdagi rolini ochib beradi. Muzeylar turizm, hunarmandchilik, ilmiy tadqiqot, restavratsiya ishlari, ta'lim, xalqaro madaniy aloqalar va mahalliy iqtisodiyot bilan bog'liq holda faoliyat yuritishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuv muzeyni faqat davlat budjeti hisobidan faoliyat yurituvchi muassasa sifatida emas, balki mintaqaning madaniy-iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi omil sifatida baholash imkonini beradi.

Buxoro muzey-qo'riqxonasi tajribasini tahlil qilish orqali R. Almeyev muzeylar faoliyatida an'anaviy va innovatsion shakllarni uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi. An'anaviy shakllar fondlarni saqlash, eksponatlarni ilmiy tavsiflash, doimiy ekspozitsiyalar yaratish bilan bog'liq bo'lsa, innovatsion shakllar vaqtinchalik ko'rgazmalar, muzey aksiyalari, tashrif buyuruvchilar bilan faol muloqot, hamkor tashkilotlar bilan aloqalar, marketing va madaniy turizm bilan bog'liqdir. Bu esa olimning muzey ishiga zamonaviy yondashuv tarafdori bo'lganini ko'rsatadi[4].

R. Almeyev tadqiqotida muzey kommunikatsiyasi masalasi muhim nazariy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Muzey kommunikatsiyasi deganda muzey, eksponat va tashrif buyuruvchi o'rtasidagi ma'naviy-intellektual aloqa tushuniladi. Bu aloqa orqali tarixiy buyum oddiy predmet bo'lib qolmaydi, balki ma'no, xotira, qadriyat va tarbiya manbaiga aylanadi[1].

Olim muzey ekspozitsiyasini tomoshabinga ta'sir ko'rsatadigan kommunikativ maydon sifatida talqin qiladi. Bunda eksponatning joylashuvi, ilmiy izohi, tarixiy konteksti, badiiy yechimi va tashrif buyuruvchi tomonidan qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, muzey faoliyati faqat ashyoni saqlash bilan emas, balki uni jamiyatga tushunarli, ta'sirchan va tarbiyaviy mazmunda yetkazish bilan ham belgilanadi.

Bu qarash bugungi muzey pedagogikasi uchun ham dolzarbdur. Hozirgi kunda muzeylar maktab, oliy ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari va turistik markazlar bilan hamkorlikda ishlashi zarur. R. Almeyevning kommunikatsion yondashuvi muzeylarni ta'lim-tarbiya jarayoniga

12 kengroq jalb etish, interaktiv ekspozitsiyalar yaratish, tashrif buyuruvchilarning yosh va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish kabi masalalarga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi[5].

R. Almeyev tadqiqotining yana bir muhim jihati - muzeylar faoliyatini bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rganishidir. Mustaqillikdan keyin madaniyat muassasalari, jumladan muzeylar ham yangi iqtisodiy munosabatlar bilan yuzma-yuz keldi. Bunday sharoitda muzeylar faqat davlat tomonidan ajratiladigan mablag'larga tayanib qolmasdan, qo'shimcha hamkorlik, homiylik, xizmatlar, turizm, nashr mahsulotlari, ko'rgazmalar va madaniy loyihalar orqali o'z faoliyatini kengaytirishi zarur bo'ldi.

Olim muzeylar bozor munosabatlariga moslashar ekan, ularning asosiy vazifasi - madaniy merosni asrash va ilmiy-ma'rifiy faoliyat yuritishdan chekinmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Ya'ni iqtisodiy samaradorlik muzeyning ma'naviy va ilmiy vazifalariga zid bo'lmasligi lozim. Aksincha, to'g'ri tashkil etilgan iqtisodiy mexanizmlar muzeylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, restavratsiya ishlarini kengaytirish, fondlarni saqlash sharoitini yaxshilash va tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Bu jihatdan R. Almeyevning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki zamonaviy muzeylar nafaqat madaniy, balki turistik, ta'limiy, kommunikativ va iqtisodiy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Muzey marketingi, muzey menejmenti, raqamli ekspozitsiyalar, xalqaro ko'rgazmalar va madaniy turizm kabi yo'nalishlar aynan shunday kompleks yondashuvni talab qiladi[3].

R. Almeyev tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, u O'zbekiston muzeylari tarixini o'rganishda keng manbaviy asosga tayangan. Uning ilmiy tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Milliy arxivi, Buxoro muzey-qo'riqxonasi joriy arxivi, madaniyat sohasi tashkilotlari materiallari, muzeylarning yillik hisobotlari, rejalar va amaliy faoliyat natijalari keng jalb qilingan. Bu esa olim ishining manbashunoslik qiymatini oshiradi.

R. Almeyev muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda muzey muassasasining yangi nazariy faoliyat sxemasini taklif etadi. Bu sxemada muzey fond, ekspozitsiya, tashrif buyuruvchi, hamkorlar, hududiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, u muzey faoliyatining noan'anaviy shakllarini, jumladan ekspozitsion faoliyat, fondlar bilan ishlash, muzey auditoriyasi bilan muloqot va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Olimning 40 dan ortiq ilmiy ishlari, monografiyalari, respublika va mahalliy nashrlardagi maqolalari uning muzeyshunoslik sohasidagi izchil ilmiy faoliyatini ko'rsatadi. Jumladan, "Buxoro-shahar-muзей" hamda "O'zbekiston muzeylari va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish istiqbollari" kabi asarlari muzeylar tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyatlidir[7].

Bugungi kunda O'zbekistonda madaniy merosni asrash, muzeylarni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, turizm salohiyatini oshirish va yosh avlodni tarixiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda R. Almeyevning ilmiy qarashlari nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, olim muzeylarni milliy o'zlikni anglash markazi sifatida ko'radi. Bu yondashuv bugungi ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun ham dolzarbdir.

Ikkinchidan, u muzeylarni hududiy rivojlanish va madaniy turizm bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Bu esa Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Qo'qon kabi tarixiy shaharlar salohiyatini oshirishda muhim nazariy asos bo'la oladi[8].

Uchinchidan, olim muzey kommunikatsiyasiga e'tibor qaratadi. Bu bugungi interaktiv, raqamli va ta'limiy muzey amaliyoti bilan bevosita bog'liqdir.

To'rtinchidan, R. Almeyev muzeylarni bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi muassasa sifatida ham ko'rib chiqadi. Hozirgi kunda muzeylar homiylik, grantlar, xalqaro loyihalar, turizm xizmatlari va madaniy tadbirlar orqali o'z faoliyatini rivojlantirishga intilmoqda. Shu ma'noda, olim ilgari surgan fikrlar zamonaviy muzey menejmenti uchun ham ahamiyatlidir[9].

**Xulosa.** Robert Valiyevich Almeyev O‘zbekiston muzeyshunosligi rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning “O‘zbekiston muzeylari va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish istiqbollari (1991–2000 yy.)” mavzusidagi tadqiqoti mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatida yuz bergan tub o‘zgarishlarni ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Olim muzeylarni tarixiy xotira, milliy o‘zlik, ma’naviy tarbiya, madaniy kommunikatsiya va hududiy taraqqiyot bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy institut sifatida talqin etadi.

R. Almeyevning ilmiy yondashuvi O‘zbekiston muzeylari tarixini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab bergan, deyish mumkin. U muzeylar faoliyatini faqat fond va ekspozitsiya doirasida emas, balki davlat siyosati, jamiyat ehtiyoji, bozor munosabatlari, madaniy turizm, kommunikatsiya va ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilgan. Buxoro muzey-qo‘riqxonasi tajribasini chuqur o‘rganish orqali u muzeylarning mintaqaviy madaniy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini asoslab bergan[10].

Bugungi kunda O‘zbekiston muzeylari oldida madaniy merosni saqlash, uni ilmiy o‘rganish, raqamlashtirish, yosh avlodga yetkazish va xalqaro miqyosda targ‘ib etish kabi muhim vazifalar turibdi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda R. Almeyevning ilmiy merosi, nazariy qarashlari va amaliy tavsiyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli olimning muzeyshunoslikka oid tadqiqotlarini chuqur o‘rganish, ularni zamonaviy muzey amaliyoti bilan bog‘lash va ta’lim jarayoniga kiritish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Almeyev R.V. O‘zbekiston muzeylari va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish istiqbollari (1991–2000 yy.). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2011.
2. Almeyev R.V. Buxoro - shahar-muzey. - Toshkent: Fan, 1999.
3. Almeyev R.V. O‘zbekiston muzeylari va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish istiqbollari. - Toshkent, 2007.
4. Альмеев Р.В. Бухоро музей-қўриқxonasi маданият ва иқтисодий ривожланиш омили сифатида. Тарих фанлари номзоди диссертацияси автореферати. - Москва, 1994.
5. Sodiqova N.S. O‘zbekistonda muzey ishi. - Toshkent: Fan, 1975.
6. Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
7. “O‘zbekiston Respublikasi muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hukumat qarorlari va muzey sohasiga oid me‘yoriy hujjatlar.
8. “Moziydan sado” jurnali materiallari. - Toshkent, 1999–2000.
9. “Общественные науки в Узбекистане” журналы материаллари. - Тошкент, 1998-2004.
10. Buxoro davlat me‘moriy-badiiy muzey-qo‘riqxonasi ilmiy maqolalar to‘plamlari. - Buxoro, 1990-1998.